



CHANOQ NUQSONLARI TUSHUNCHASI

Muallif: Sobirova Zilola Zohidjon qizi

Quva Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi

Maxsus fan o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chanoq suyaklarining tuzilishi, ularning nuqsonlari, sabablari, shuningdek, bunday holatlarda hamshiraning amaliy faoliyati va parvarish jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Maqola tibbiyot amaliyotida chanoq nuqsonlariga duch kelgan bemorlarni kuzatish, parvarishlash va rehabilitatsiya tadbirlarini samarali olib borish yo'llarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: chanoq suyaklari, nuqsonlar, hamshiralik parvarishi, rehabilitatsiya, amaliy hamshiralik.

ABSTRACT

This article describes the structure of the pelvic bones, their defects, and causes, as well as the role of the nurse in caring for and rehabilitating patients with such conditions. The article highlights the practical nursing approach to the observation, care, and rehabilitation of patients with pelvic deformities in medical practice.

Keywords: pelvic bones, deformities, nursing care, rehabilitation, practical nursing.

Chanoq suyaklari inson skeletining muhim qismini tashkil etadi. Ular tananing pastki qismida joylashib, ichki a'zolari himoya qiladi, tananing og'irligini oyoqlarga taqsimlaydi va harakatlanishda muhim rol o'ynaydi. Chanoqning normal tuzilishi buzilganda turli xil nuqsonlar yoki deformatsiyalar paydo bo'lishi mumkin.



Bunday nuqsonlar tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin. Tug'ma nuqsonlar homiladorlik davrida embrion rivojlanishining buzilishi natijasida kelib chiqadi, orttirilgan nuqsonlar esa travma, suyak kasalliklari, infeksiyalar yoki gormonal o'zgarishlar oqibatida yuzaga keladi.

Hamshira bunday bemorlar bilan ishlash jarayonida nafaqat tibbiy yordamni ko'rsatadi, balki ularning psixologik holatini ham qo'llab-quvvatlashi zarur. Bemorni parvarishlashda gigiyena talablariga qat'iy rioya qilish, yotishdan hosil bo'ladigan yara (prolej)larning oldini olish, to'g'ri ovqatlanish va fizioterapiya mashg'ulotlarini tashkil etish katta ahamiyatga ega.

Chanoq nuqsonlari bilan og'rigan bemorlar ko'pincha harakatlanishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu sababli hamshira bemorning jismoniy imkoniyatlariga mos ravishda kundalik faoliyatni tashkil etadi. Reabilitatsiya davrida hamshira bemorni ruhlantirib, motivatsiya beradi va mashqlarni muntazam bajarilishini nazorat qiladi. Bu holatlarda oilaviy a'zolarning ham faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Bemorlarni parvarishlash jarayonida hamshira tibbiy ko'rsatmalarni aniq bajarishi, shifokor bilan doimiy hamkorlikda bo'lishi zarur. Bundan tashqari, bemorga to'g'ri yotish holatini tanlash, og'riqni kamaytirish uchun fizioterapevtik usullarni qo'llash, zarurat bo'lsa, immobilizatsiya vositalarini ishlatish hamshiraning muhim vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, chanoq nuqsonlari inson hayot sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan holatlardan biridir. Hamshira esa bunday bemorlar bilan ishlashda nafaqat tibbiy, balki insonparvarlik yondashuvini ham namoyon etadi. Bemorning jismoniy tiklanishi bilan bir qatorda, ruhiy barqarorligini ta'minlash hamshira faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tibbiyot ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2020.
2. G'ulomov Sh. va boshqalar. Hamshiralik ishi asoslari. Toshkent, 2021.
3. Abdullayeva M. Anatomiya va fiziologiya asoslari. Toshkent, 2019.
4. World Health Organization (WHO). Musculoskeletal disorders guidelines, 2022.
5. Nursing Care Standards. Geneva: WHO Publications, 2023.